

*1988-yil Xorazm viloyati Yangiariq tumanida tug'ilgan.
Oliy toifali ona tili va adabiyot o'qituvchisi.*

QATAG'ON QURBONLARIGA...

Shu kunlar qalbimga izlayman malham,
Hislarim to'kmoqqa ojizdir qalam,
Surgunlar dilida Sibirdan alam,
Armonga aylangach o'z Vatanlari,
Gunohsiz gunohkor xalq dushmanlari.

Farzanding bor edi noyob iste'dod,
Sherdek bolang qo'lidan ketdiku, voy-dod!
Nahot, Qodiriy deb chekmading faryod,
Vatanim, erking-chun fido jonlari,
Gunohsiz gunohkor xalq dushmanlari.

Cho'lponning aybi ne shoirligimi,
Haq gapni aytishga qodirligimi,
Yoinki erksevar, botirligimi,
Hazonga aylandi gul chamanlari,
Gunohsiz gunohkor xalq dushmanlari.

Oh, badavlat Fitrat bo'lib bechora,
Shu bilan tiriklay qolsayding zora,
Dillar og'rinati, yuraklar pora,
Ne azob ko'rmasdi bu gardanlari,
Gunohsiz gunohkor xalq dushmanlari.

Yurakka she'riyat o'tini qalab,
Usmoning so'ndi bir yulduzday porlab,
Uni-da Sibir o'z bag'riga chorlab,
O'rmonlar qa'rida qolib tanlari,
Gunohsiz gunohkor xalq dushmanlari.

Fayzullo Xo'jayev, Akmal Ikromlar,
Eslasam birma-bir adoqsiz nomlar,
Bo'g'zimga tiqilar, kelmay kalomlar,
Sababi sarg'ayib so'ldi ranglari,
Gunohsiz gunohkor xalq dushmanlari.

Ayol nozik hilqat, lekin baribir,

5 NOYABR / 2022 YIL / 23 – SON

Cheklamas ularni bu zulm, jabr,
Shumi ayollarga munosib qadr,
Ne dardlar chekmadi gul badanlari,
Gunohsiz gunohkor xalq dushmanlari.

Aybsiz ekanin bilishgan edi,
Aybi shumikanyo, kelishgan edi,
Uchqur tulpor kabi yelishgan edi,
Bo'lishdi sal keyin toy, samanlari,
Gunohsiz gunohkor xalq dushmanlari.

Qalbim o'rtanadi o'tmish deb bu kun,
Yurtim, ko'ksing to'la shahidlar uchun,
Farzandlaring yotar bo'lib bag'ri xun,
Nasib etmay hatto oq kafanlari,
Gunohsiz gunohkor xalq dushmanlari.

Millat fidoyisi – millat kamoli,
Saroqlar tarqadi, hurlik shamoli,
Nomining tillarda nash'-u namoli,
Bo'ldi obod oxirat maskanlari,
Gunohsiz gunohkor xalq dushmanlari.

SAIDA SAFO – 2008.

ALLITERATSIYA (TAVZE')

Salqin saharlarda sog'inchli salom,
Sizga sadoqatli Saidangizdan.
Sevgisi sababli savdoyi sanam,
So'zsiz saodatli Saidangizdan.

So'ngsiz sajda sizga sarhadi serob,
Surma surgan suluv, sochi sunbuldan.
Sevgimni sinang siz: soxtami sarob,
Suvarin simirgan so'lim sohildan.

Sarhadga sig'magan sargashta sevgim,
Sohilda sargardon, sarson suzmoqda.
Sevgi sirtmog'ini solganday sezgim,
Sururlanib sizga sodiq sezmoqda.

Sarin sabolarga so'zladim sarhush,

5 NOYABR / 2022 YIL / 23 – SON

Sir saqlagan sevgim sal so'ngra sekin.
Sukunat sindi-yu sahar sertashvish,
Sa'valar sayrashar samoda sokin.

Samimiy so'zlardan saradan sara,
Sozladim sarbonim subhidam sovg'a.
So'zlarim saralab, sayqallab so'ngra,
Sersavlat sultonim, siz-chun sahifa.

Sizga saralagan satrim sanoqli,
Sakson sakkiz so'zda sevgim siylovdir,
Sog'inch sinayotgan sabrim salmoqli,
Sevgim sinashtadir, sabrim sinovdir.

Sehrlanar soatda so'zin sog'inib,
Sidqidildan sahiy, serzavq suhbatlim,
Sevgisi so'nmagay, so'zi simmagay,
Serviqor sur'atlim, sershavq siyrathim.

SAIDA SAFO - 2017-yil

TUYUQ

Ishqingdan yondiku, yurak, bag'ir, o't,
Faqat mening ko'nglim ko'chasidan o't,
Yo'qsa dunyolarga qo'ygaydirman o't,
Keyin unda unmas na giyoh, na o't.

Bo'lmoqlik istasang samimiy o'ta,
Burchingni his qil-u chin dildan o'ta,
Ko'nglingda bog' yarat, faqat gul unsin,
So'ng undan begona o'tlarni o'ta.

Ma'lumdir bir hikmat keksa-yu yoshga,
Aql boshda derlar qaramas yoshga,
Xato qilingan so'ng pushaymonlikka
Va endi na hojat ko'zdagi yoshga.

SAIDA SAFO

MUKARRAR (TAKRIR)

Shoira Shamsga...
G'azalning zavqiga nima tatiydi,

Qalam ahli ani yaxshi taniydi,
Oftob-u oftob-u oftob-u oftob.

Siz kabi yozolsam faqir qaniydi,
Sarob-u sarob-u sarob-u sarob.

G'azal istar ko'ngil qachon qariydi,
Shabob-u shabob-u shabob-u shabob.

Ildizing mustahkam nechun quriydi,
Mirob-u mirob-u mirob-u mirob.

Ichmasak Xayyom-u Mashrab ranjiydi,
Sharob-u sharob-u sharob-u sharob.

Shamsimi, sha'ningiza bitsa arziydi,
Kitob-u kitob-u kitob-u kitob.

SAIDA SAFO

ZULQOFIYATAYN

Mayli, yolg'on aytgin: Suydim,
suyukligim janonam bo'l,
Layli bo'lib ishqidan kuydim,
majnunsifat devonam bo'l.

Xummor qadah oldim qo'lga,
ichmoqlikka mayxonam bo'l,
Diydor sari chiqdim yo'lga,
quchmoqlikka koshonam bo'l.

Furqatingdan ayla forig',
yo'qsa menga g'amxonam bo'l,
Tal'atingdan tutma darig',
boshim qo'yay ostonam bo'l.

SAIDA SAFO

MUSALLAS (UCHLIK)

5 NOYABR / 2022 YIL / 23 – SON

Onajon! Dunyoga kelib,
Ozor berdim necha bor
Guldan nozik qalbingizga...

Onajon! Xatolar qilib,
Tekkizdimmi sovuq qor,
Cho'g'dan issiq qalbingizga...

Onajon! Bilmay yo bilib,
Qo'ndirdimmi chang, g'ubor,
Suvdan tiniq qalbingizga...

Onajon! Men farzand bo'lib,
Dalda bo'lmadim zinhor,
G'andan siniq qalbingizga...

Onajon! Baxtingiz yulib,
G'animplar berdi ozor,
Munis, mushfiq qalbingizga...

Onajon! Yurgaysiz kulib,
Tangri bo'lib madadkor,
Baxtga intiq qalbingizga...

SAIDA SAFO

ISHQ

O'q tortilgan kamonimdur ishq,
Olis manzil, karvonimdur ishq,
Ko'ngling uyi tomon eltguvchi-
Yo'l ko'rsatar, sarbonimdur ishq.

Borki choram, imkonimdur ishq,
E'tiqod-u iymonimdur ishq,
Isming dilga joylandi abad,
Furqatingda isyonimdur ishq,

Mening ruhi-ravonimdur ishq,
Boshdan toki tovonimdur ishq,
Mahshargacha tiladim seni,
Baski, ikki jahonimdur ishq.

SAIDA SAFO

5 NOYABR / 2022 YIL / 23 – SON

Bu besh kunlik ajib zamonda,
Yillar o'tib, ulg'aysa yoshim.
Bir paytlari bo'lgan kamonda,
Ajin tushib, chimrilsa qoshim,
Hayot nomli qora qozonda,
Tugar bo'lsa nasiba oshim.
Istar edim faqat shu onda,
Yelkangga jim qo'yolsam boshim.

Muhabbatning ishi shu ekan,
Og'ushingda bo'lmoq istayman.
Sendan ming-ming roziman,- degan,
Tovushingda bo'lmoq istayman.
So'nggi nafas, jonim, sen bilan,
Qalbim ishqqa to'lmoq istayman.
Yetsa vido onim sen bilan,
Baxtli holda o'lmoq istayman.
SAIDA SAFO - 28.07.2022

ERK QO'SHIG'I

Taqdir yozmagaydir farzand dog'ini,
Hech banda boshiga, hatto yog'iyni,
His qilsa kimda-kim bilgay ohini,
Kayxusrav yetkazgan zulm-zo'rlikni,
Qadriga yetaylik bunday hurlikni!

Mensimay raqibin qo'yan chohini,
El deb qurban qildi ko'z qarog'ini,
Balandroq ko'tarib jang yarog'ini,
Tan olmay To'maris tanglik, xo'rlikni,
Qadriga yetaylik bunday hurlikni!

Doro yov bu yurtga qilganda qahr,
Shiroq jasorati moziyga muhr,
Tinchlik deb ishlatdi hiyla-yu makr,
Qay jazoga mahkum etgan sho'rlikni,
Qadriga yetaylik bunday hurlikni!

Chingizxon lutf qilib berganda imkon,
Chiqib ketmoqlikka yurtidan omon,
Taklifin rad etib eli uchun jon-
Berolgan Kubrodan o'rgan sherlikni,

Qadriga yetaylik bunday hurlikni!

Tomiringda oqar Jalolning qoni,
Tan berdi fotihi-mo'g'illar xoni,
Vatan desang ko'zga ko'rinas joni,
Panaga qochmadi, bilmas g'o'rlikni,
Qadriga yetaylik bunday hurlikni!

Ajdodlardan meros bizga bu Vatan,
Erk deya ne zotlar ketdi bekafan,
Qodiriya soxta hujjatlar rasman
To'plashdi tan olmay, tanlab o'rlikni,
Qadriga yetaylik bunday hurlikni!

Tong yulduzing ko'kda bemavrid balqdi,
Qora kunlar qancha ko'zda yosh qalqdi,
Erksevar Cho'lponing kuyladi xalqni,
Buzilgan o'lkada mayjud kirlikni,
Qadriga yetaylik bunday hurlikni!

Yurt qayg'usin dilga tuyganda Fitrat,
Duch keldi bu yo'lda unga ko'p zahmat,
Ruhin shod etaylik qilib ziyorat,
So'nggi makonini handaq, go'rlikni,
Qadriga yetaylik bunday hurlikni!

Qayinlar yaprog'i emas bu hazon,
Bu-Usmon qalbida zang bosgan armon,
Dohiyni alqagan , ey mash'um zamon,
Xatosi bilmadi senga jo'rlikni,
Qadriga yetaylik bunday hurlikni!

Millat ravnaqi-chun qilgan ishtirok,
Ziyoliga hukm: Qilinsin halok!
Onalar faryodda, yoqalari chok,
Qonli yoshlar "hadya etdi" ko'rlikni,
Qadriga yetaylik bunday hurlikni!

Tarixda eng mudhish, eng jirkanch onlar
Begunoh to'kildi qirmizi qonlar,
Bemavrid uzildi minglagan jonlar,
Shular evaziga kelgan NURLIKNI,
Qadriga yetaylik bunday HURLIKNI!